

VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUNZARLIGI PROFILAKTIKASI
VA UNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Yusupova Sohiba Saparbayevna – Osiyo Xalqaro universiteti psixologiya
mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik sodir etilishining psixologik sabablari, ularning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda profilaktika ishlarini samarali tashkil etishning psixologik asoslari yoritilgan. Shuningdek, ishda yoshlarning xulq-atvoridagi salbiy o'zgarishlarga psixologik yondashuvning ahamiyatini tahlil qilingan va huquqbuzarlikning oldini olishda psixolog, pedagog va ota-onalar hamkorligining o'rnini ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: huquqbuzarlik, profilaktika, voyaga yetmaganlar, psixologik yondashuv, motivatsiya, korreksiya, oilaviy muhit.

Kirish

Hozirgi globallashuv sharoitida yoshlar ongiga turli mafkuraviy ta'sirlar kuchayib borayotgan bir paytda, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish dolzarb masalaga aylanmoqda. Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida yuzaga keladigan ruhiy inqirozlar, oiladagi beqarorlik, nazoratning sustligi va ijtimoiy muhit ta'siri o'smirlarning xulqida salbiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Shu bois huquqbuzarlik profilaktikasida psixologik yondashuvlarni qo'llash eng muhim omillardan biridir. "Hududlarda voyaga yetmaganlarning ma'naviy, axloqiy, huquqiy, estetik, jismoniy, mehnat tarbiyasida ishtirok etish, ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga ko'maklashish, jazoni ijro etish muassalaridan qaytib kelgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilinishi va moslashuviga yordam berishga barcha birdek mas'ul bo'lishi zarurligi ta'kidlandi"¹

1. Voyaga yetmaganlar shaxslarning psixologik xususiyatlari

O'smirlik davri (11–17 yosh oralig'i) inson hayotida shaxsiy "men"ni anglash, mustaqil fikrlash, jamiyatda o'zi o'rnini topish davridir. Bu bosqichda hissiy o'zgaruvchanlik, emotsional beqarorlik va atrofdagilarning bahosiga haddan ortiq e'tibor berish holatlari kuzatiladi. Shuningdek, guruh ichida "obro' orttirish", o'zini namoyon qilishga intilish, ayrim hollarda salbiy odatlarga ergashish kabi holatlar

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.08.2021 yildagi 490-son. Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-3, ISSUE-01**

huquqbuzarlik xavfini oshiradi. Bu esa, huquqbuzarlikning psixologik sabablari aniqlash zaruriyatini korsatadi.

Voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikning psixologik ildizlari quyidagi omillar bilan bog'liq:

- Oilaviy muhitdagi beqarorlik – ota-onalar o'rtasidagi mojarolar, farzandlarga nisbatan e'tiborsizlik yoki haddan ortiq nazorat qilinishi;

- Tengdoshlar ta'siri – “men ham shunday qilaman” tamoyili asosida shakllanuvchi xatti-harakatlar;

- O'zini qadrlashning pastligi – ijtimoiy o'rnini topa olmaslik, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmaslik;

- Emotsional muvozanatsizlik – hissiy portlashlar, agressivlik, stress holatlarida o'zini boshqara olmaslik;

- Qadriyatlar tizimidagi buzilish – axloqiy me'yorlarga befarqlik, mas'uliyat hissining sustligi kabilar.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar jamiyat barqarorligiga jiddiy xavf tug'diruvchi ijtimoiy muammolardan biridir. Ushbu muammoning ildizi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki chuqur **psixologik omillar** bilan ham bog'liq. Shu bois huquqbuzarliklarning oldini olishda psixologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining psixologik omillari

Psixolog olimlarning ta'kidlashicha, voyaga yetmaganlarda huquqbuzarlikka moyillik quyidagi omillar bilan bog'liq bo'ladi:

- emotsional beqarorlik;
- affektiv holatlarning ustunligi;
- nazorat mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi;
- ijtimoiy rollarni anglashdagi qiyinchiliklar.

A. Bandura ta'kidlaganidek: “Shaxs xulq-atvorining shakllanishida ijtimoiy muhit va namuna asosiy rol o'ynaydi” (Bandura, 1977). Bu fikr voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning ko'pincha **salbiy ijtimoiy namunalarga taqlid** natijasida yuzaga kelishini tasdiqlaydi.

Voyaga yetmaganlar bilan ishlashda profilaktik faoliyatning psixologik asoslari quyidagi yondashuvlarni o'z ichiga oladi:

1. Diagnostik yondashuv – shaxsning hissiy holati, ijtimoiy moslashuvi va xulq motivlarini aniqlash;²

2. Korreksion yondashuv – individual yoki guruh psixologik mashg'ulotlar orqali salbiy xulqni ijobiy xulqqa o'zgartirish;

² Abdullayeva M. A. Psixologik diagnostika. — Toshkent: Fan, 2015.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-3, ISSUE-01**

3. Motivatsion yondashuv – o‘smirlarning ijtimoiy foydali maqsadlarini shakllantirish, o‘ziga ishonchni oshirish;

4. Ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash – maktab, oila va jamoa o‘rtasidagi sog‘lom muhitni ta‘minlash³.

2. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarlik profilaktikasini samarali tashkil etishning psixologik shakli va usullari.

Huquqbuzarlik profilaktikasida quyidagi psixologik ish shakllari samarali hisoblanadi:

- Psixologik treninglar – muloqot madaniyati, konfliktlarni yechish, stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- Rollar o‘yini va dramatizatsiya – huquqbuzarlik oqibatlarini emotsional idrok etish orqali tushuntirish;

- Individual maslahatlar – shaxsiy muammolarni aniqlash va individual yondashuv asosida yechim topish;

- Guruh mashg‘ulotlar – ijobiy ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni shakllantirish;

- Huquqiy-ma‘rifiy tadbirlar – huquqiy bilimlarni yoshlar psixologiyasiga mos shaklda yetkazish.

Huquqbuzarlik profilaktikasida quyidagi psixologik usullardan foydalanish samarali hisoblanadi:

1. Tushuntirish va profilaktik suhbatlar

2. Interaktiv metodlar

3. Oila bilan ishlash

4. Tarbiyaviy madaniy-ma‘rifiy tadbirlar

3. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarlik profilaktikasini tashkil etish jarayonida inspektor-psixologlarning o‘rni va hamkorlik mexanizmi.

Inspektor-psixolog voyaga yetmaganlarning ichki holatini o‘rganadi, ularning hissiy ehtiyojlari va xulq sabablarini aniqlaydi. U o‘qituvchi, ota-ona va ijtimoiy xodimlar bilan hamkorlikda profilaktika dasturlarini ishlab chiqadi. Shu bilan birga, inspektor-psixolog o‘smirning ijobiy ijtimoiy moslashuvini ta‘minlash uchun motivatsion va korreksion ishlarni tizimli olib boradi.⁴

Yuqoridagi voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarlik profilaktikasini tashkil etish masalasiga doir tahlillardan quyidagich xulosa chiqarish mumkin: Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarlik profilaktikasini samarali tashkil etish

³ Karimova V.M. Psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.08.2021 yildagi 490-son. Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-3, ISSUE-01**

psixologik yondashuvsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Har bir o'smir individual shaxs sifatida ko'rilishi, uning ruhiy ehtiyojlari va ijtimoiy holati inobatga olinishi zarur. Psixologik-pedagogik hamkorlik, oilaviy tarbiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi bir butun mexanizm sifatida ishlaganda, huquqbuzarliklarning oldini olishda sezilarli natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun.
2. Karimova V.M. Psixologiya asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
3. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Fan, 2018.
4. Xayrullaev M. Pedagogik va psixologik asoslarda huquqbuzarlik profilaktikasi. – Toshkent, 2021.
5. Internet manbalari va zamonaviy ilmiy maqolalar.